



## FEMINISTIK QARASHLARDA AYOL SHAXSI ERKINLIGI

**M.I.Davronova**

Samarqand davlat universiteti professori

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada jahon adabiyoti miqyosida feministik qarashlar kuzatilib, unda adabiyotda o'z o'rniga ega bo'lgan hamda ayol shaxsi erkinligi borasida asarlar yaratgan ijodkorlar, shoirlar haqida ma'lumot beriladi. Turk, Eron, Yapon, Xitoy, Koreys hamda Hind shoirlarining bu boradagi izlanishlari hamda ijodi xususidagi ma'lumotlarni qamrab olingan.

**Kalit so'zlar:** ayol, shaxs, erkinlik, ijod, dunyoqarash, davr, muhit, asar, muallif, qahramon.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются феминистские взгляды в масштабах мировой литературы, даются сведения о художниках и поэтах, занимающих свое место в литературе и создавших произведения о свободе женской личности. Освещены сведения об исследованиях и творчестве Турецких, Иранских, Японских, Китайских, Корейских и Индийских поэтов по этому поводу.

**Ключевые слова:** женщина, человек, свобода, творчество, мировоззрение, эпоха, среда, труд, автор, герой.

**Annotation:** This article examines feminist views on the scale of world literature, provides information about artists and poets who occupy their place in literature and have created works about the freedom of the female personality. Information about the research and creativity of Turkish, Iranian, Japanese, Chinese, Korean and Indian poets on this subject is covered.

**Key words:** woman, person, freedom, creativity, worldview, era, environment, work, author, hero.

Jahon madaniyati va san'atida feminizm tushunchasi jaranglay boshladi. Aslida feminizm - bu ayollarning siyosiy, iqtisodiy, shaxsiy va ijtimoiy huquqlarini kengaytirishga qaratilgan turli mafkura va harakatlar spektridir. Bu jarayon hayotga XIX asr boshlarida kirib kela boshladi. Jahon madaniyati, san'ati va adabiyotida feministik qarashlar XIX asr boshi va XX asrda ko'zga tashlana boshladi. Bu qarashlarning asosini esa ayollar erki tushunchasi qamrab oldi. Qay bir xalq vakilasi ijodiga nazar tashlamaylik, barchasida, birdek feministik qarashlarni kuzatish mumkin bo'ladi. Bu haqda 1986 yilda yozuvchi va muharrir Mari Shear shunday deb yozgan edi: "Feminizm - bu ayollarning odamlar ekanligi haqidagi radikal tushunchadir" [1]. Demak, XIX asr boshlaridayoq sharqda feministik qarashlar va tushunchalarga zamin yaratilgan.

Turk adabiyoti va uning dunyosiga feministik qarashlarni olib kirgan ijodkor Yashar Nozihe (1882-1972) sanaladi [2]. Bu ijodkor ayol o'zining isyonkor she'rlari va feministik qarashlari bilan turk she'riyatiga yangi nafasni olib kirdi. Shu bilan



birga u ayol hayoti, uning taqdiri va hayotdagi o'zni xususida she'rlar yarata boshladi. Shoira o'z qarashlari bilan ayol tushunchasini yuqori mavqega olib chiqishga intildi, uning barcha she'rlarida ayolning mana shunday kayfiyati o'z ifodasini topgan bo'lib, hayotining bir parchasini tashkil etadi. Shoira o'zining butun umri davomida o'zining kam ta'minlangan hayoti va og'ir bolaligi xususida she'rlar bitdi. "Aydinlik dergesi" ("Ma'rifat" jurnali) da uning qalamiga mansub she'rlari chop etilgan bo'lib, ularda og'ir mehnat sharoitida hayot kechirayotgan ayol taqdiri xususida so'z ochdi. U gazeta egalari va Murettipler Cemiyeti (Yozuvchilar jamiyati) o'rtasidagi kelishmovchiliklar tufayli ish tashlashga chiqqan ishchilarni qo'llab-quvvatlash niyatida rahbarlarga murojaat qilib, "Gazete Sahiplariga" nomli she'r yozadi va shu yo'l orqali inson taqdiri va uning hayoti ijtimoiy voqelik orqali kuzatiladi. Bu kabi isyonkorlik ruhi keyinchalik boshqa turk ayol ijodkorlariga ham o'tdi. Natijada, Yashar Nozihening 1896-1953 yillardagi ijodi mamlakatda feministic qarashlarga yo'l ochdi. U nafaqat bu davrda ijod etdi, balki bilim oshirishga intildi. Uning birinchi kitobi "Bir Deste Menekshe" ("Binafsha guldastasi") dan keyin 1925-yilda "Faryodlarim" nomli ikkinchi kitobi nashr etildi. Keyinchalik uning she'rlari ko'plab ayollar gazeta va jurnallarida, xususan, "Ayollar jurnali"da nashr etildi. Tadqiqotchi Taxa Toros arxivida uning uchta she'r to'plami saqlanadi. Shiir Defteri (She'rlar kitobi) uning Torosga bergan so'nggi nashr etilmagan asaridir. 1895 yildan uning asarlari Malumat ve Terakki va Nazikter kabi jurnallarda Mazlume, Mahmure va Mehcre taxalluslari bilan nashr etilgan. Shoiraning "Hazan Unvanli Manzume", "Kardeş Yüreği", "Efsus", "Leyyal-i Pur-Azab" – asarlari o'z davrida shuhrat qozondi.[3]

XIX asrdan boshlab turk adabiy jarayonida keskin janrlar o'zgarishi yuzaga keldi. Avangard bo'lib qolgan nazm o'z o'rnini nasrga bo'shatdi. Ijodiy faoliyatni o'qitish tadqiqot yoki ijtimoiy faoliyat bilan birlashtirgan adibalar ko'zga tashlana boshlandi. Bu xususiyatni o'zida mujassam etgan turk adibalari o'z asarlari bilan sezirarli darajada adabiy jarayonga ta'sir eta boshladilar. Birinchi turk romanini yaratgan ayol ijodkor Fotma Aliye (1864-1936) yaxshigina bilim sohibasi bo'lish bilan birga sharq falsafasidan xabardor, musiqa ilmiga ega (o'sha davrda urf bo'lgan fortipianoda ijro etar edi), fransuz va arab tilini mukammal egallagan ijodkor edi.



Fotma Aliye ko'proq tarjima bilan mashg'ul bo'ldi. Keyinchalik esa 40 dan ortiq ilmiy tadqiqotlarini yaratdi. Uning birinchi romani Axmed Medxat bilan hamkorlikda yaratgan "Xayol va haqiqat" romani bo'ldi. Keyinchalik "Taqdir" (1892), "Udi" (1899) romanlari yuzaga keldi. Bu asarlarda yosh musulmon ayolining nikoh rishtasini uzishi va o'z bilimi, ilmi, e'tiqodiga suyangan holda hayot kechirish mumkin ekanligi xususida so'z yuritadi. O'qituvchilik kasbini egallagan bosh qahramon o'z hayotini qura olishi mumkinligi asarda yorqin tasvirlarda beriladi. "Udi" romanida ham mana shu mavzu bosh planga olib chiqiladiki, unda yosh qizning ota uyini tark etishi va o'z hayot yo'lini qurishi voqeligi akslantiriladi. Fotma Aliyening ijtimoiy-siyosiy qarashlari turk ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan mos keldi, biroq "ayollar masalasi" bo'yicha qarashlari uni radikallashtirdi. Yozuvchi ijtimoiy sohada erkak va ayollarning an'anaviy bo'linishini rad etdi, ayollarning jamoat hayotida eshtirok etish huquqini talab qildi.[4], [5], [6], [7]

Iron adabiyoti feministik qarashlar u darajada kuzatilmaydi. Biroq XX asr hamda XXI asr Eron adabiyotiga ayol ijodkorlar ham tashrif buyurishdi. Bular: Simin Doneshvar, Mohishid Amirshoh, Shaxrnush Parisipur, Zoya Pizad, Moniru Rovaniपुर singari ijodkorlar eron adabiyotini boyitishga o'z hissalarini qo'shishdi [8]. Eron adabiyotida birinchi roman yaratgan ijodkor Simin Doneshvardir. U Jalol Ale-Ahmadning rafiqasi bo'lib, turmush o'rtog'ining ijtimoiy va madaniy ishlarida faol ishtirok etgan va fors tilida professional roman yozgan birinchi eronlik ayol edi. Uning asosiy romani "Siyovush uchun nola" hisoblanadi. Roman 17 tilga tarjima qilingan va Eronning eng ko'p sotilgan adabiy asarlaridan biri hisoblanadi. Daneshvar Eron Yozuvchilar jamiyatining a'zosi va birinchi rahbari ham bo'lgan [9]. Adiba o'z ijodini otasining o'limidan so'ng "Eron" gazetasida "Sherozlik anonim" taxallusi bilan maqola yozishdan boshlaydi. 1949 yilda esa qisqa hikoyalardan iborat bo'lgan "So'ngan olov" hikoyalar to'plamini yaratadi va keyinchalik u turmush o'rtog'ining vafotiga bag'ishlangan "Siyovush uchun nola" romanini yozadi. Bu asar Eron adabiyotining bestselleriga aylanadi. Bugungi Eron adabiyotiga e'tibor berilsa, unda Zoya Pirzod hikoya va romanlariga duch kelish mumkin. Bu adibaning asarlari ham Sinan asarlari singari Eron adabiyotida bestsellerga aylanib ulgurdi. Uning birinchi asari "Bugun ham kechagi kunday" deb nomlanagn bo'lib, unda adiba bir xil kundalik



hayotini olib borayotgan o'rta toifa vakilalari qiyofasini yaratadi, "So'lib qolgan xurmoning ta'mi" hikoyalar to'plaminida esa yolg'iz qolgan ayol ruhiy iztiroblarini yoritadiki, bu ayol qalbining bir qatlamidan dalolat beradi. Filolog Forug Xashabeyki (Uppsala universiteti) Zoya Pirzad ijodini feministik nasr sifatida tasniflaydi. Bunday nasrning o'ziga xos xususiyati uning munosabatlariga - erkak va ayol, ayol va jamiyatga qaratilganligidir. Hikoyachi yoki bosh qahramon ham aksariyat hollarda ayoldir. Bunday nasrda asosiy e'tibor his-tuyg'ularga qaratilgan. Ijtimoiy adabiyotdan farqli o'laroq, u ijtimoiy-siyosiy yoki tarixiy kontekstga ega emas yoki zaif ifodalangan; u shubhasiz ikkinchi darajali ahamiyatga ega [10].

Adibaning birinchi muvaffaqiyat keltirgan asari 2001 yilda yaratilgan "Yorug'likni o'chiraman" asaridir. O'sha yilining o'zidayoq adiba bu asari uchun Eron madaniyat vazirligi tomonidan "Eng yaxshi asar" sifatida tan olindi. Eronda ushbu asar 50 marotaba nashr etiladi va Nemis, Fransuz, Ingliz, Armyan, Gruz, Norveg, Turk va Xitoy tillariga tarjima qilinadi. Adibaning 1998 yil "Pasxa arafasida" deb nomlanagn asari esa xristian va musulmon dini o'rtasidagi munosabatlarga bag'ishlanadi. Yosh xristian qizi musulmon yigitini sevib qolishi va u bilan nikoh qurishga qaror qilganligi asar mazmunini keltirib chiqargan.

Eronda feministik qarashlar juda kech XXI asrga to'g'ri kelgan bo'lsa, yaponiya, xitoy va koreyada bu kabi qarashlar XX asr boshlariga to'g'ri keladi. 1980 yilda Xitoyda "ayol qalbining po'rtanasi" hodisasi sodir bo'ldi. Ushbu voqealardan so'ng adabiyotda ayollar she'riyati xususida so'z yuritila boshlandi. Bu davr Xitoy adabiyoti Ye Ley she'riyati bilan bog'liqdir. Uning "Yolg'iz ayol yotoqxonasi" asari barchani birdek hayratda qoldirdi. Ijodkor yana bir asarini "Nega yonimga kelmayсан" deb nomladi. Bu kabi qarashlar va fikrlashlar xitoy adabiyotini ayol ruhiyati borasida o'zgarishga olib keldi. Yosano Akiko haqli ravishda klassik yapon shoirasi, shuningdek, kashshof feminist va etakchi ijtimoiy islohotchi edi. Adiba bu davrda u o'zining eng mashhur va eng munozarali asari "Tangled Hair"ni nashr ettirdi. Shoira ayollarning moliyaviy mustaqilligi va ijtimoiy mas'uliyatni himoya qildi. Ayollar ta'limining ashaddiy tarafdori bo'lgan Yosano 1921 yilda Madaniyat institutini tashkil etishga yordam berdi. U mazkur ta'lim dargohining birinchi dekani va bosh o'qituvchisi bo'lib, intiluvchan yozuvchilarga adabiy hunarni o'rgatgan. Shoir



shuningdek, ayollar ta'limini olg'a surgan, mumtoz yapon asarlarini zamonaviy yapon tiliga tarjima qilgan, siyosat va urush haqida ham qalam tebratdi. Koreya adabiyotiga nazar tashlansa, unda bu yo'lda ijod etgan Na Xyosokka duch kelish mumkin bo'ladi. Na Xyosok Yaponiyada tahsil olish bilan birga Koreyadagi birinchi diplomli musavvir ham sanaladi. O'z-o'zini ta'minlash uchun suratlar yaratish bilan birga badiiy asarlar ham yarata boshlaydi. Na Xyosokning 1921 yilda "Qo'g'irchoq uy" nomli she'rida ayol ota yoki turmush o'rtog'i qo'lida qo'g'irchoq emas deb hisoblaydi. U ham boshqa shaxslar qatori tanlash huquqiga egadir deya ta'kidlanadi. Na Hyosokning yana bir muhim noyob manifesti uning gazetada chop etilgan "Ajrashning e'tiroflari" nutqi edi. Unda u ayollarni erkaklarga bo'ysunishga va o'zini qurbon qilishga majbur qiladigan Koreya jamiyatini tanqid qiladi. Na Hyosok buni yozishga o'zining ajrashishi sabab bo'lgan, shundan keyin u bolalarini ko'rish imkoniyatidan mahrum etilgan. Koreya qonuni bo'yicha bolalar otalari bilan qolishlari kerak edi. Bu kabi qonunlarni, albatta ijodkor tan olishni istamaydi, shu bois ham u har doim ayollarning huquqlari borasida ko'p bora ro'znoma va oynomalarda nutqiy chiqishlar qiladi.

Hind adabiyotida ham feministik qarashlar mavjud bo'lib, u Sarojini Naidu ijodida yaqqol ko'zga tashlanadi. Sarojini Naidu Hindistonda ayollar huquqlari uchun kurashda muhim rol o'ynagan. 1917 yilda Enni Besant va boshqalar bilan birgalikda u Hindiston ayollari uyushmasini tashkil etishga yordam berdi. Uyushma teng huquqlarga, jumladan, ovoz berish va vakillik qilish huquqiga intildi. U Kongress va erkinlik kurashiga ayollarni ko'proq kiritish zarurligini taqdim etdi. 1918 yilda ingliz va hind feministlari, jumladan Naidu xalqaro yangiliklarni feministik nuqtai nazardan taqdim etish uchun "Stri Dxarma" nomli jurnalni yaratdilar [11].

Umuman olganda, Hindistondagi feminizm tarixini uch bosqichga bo'lish mumkin:

XIX-asr o'rtalarida boshlangan birinchi bosqichda: ta'lim, urf-odatlar, ayollar ishtirokida islohotlarni joriy etish orqali ayollar huquqlarini himoya qila boshlaganlarida hisoblangan[12];





ikkinchi bosqich: 1915 yildan Hindiston mustaqilligigacha, Gandi ayollar harakatini Hindistondan chiqish harakati tarkibiga kiritgan va mustaqil ayollar tashkilotlari paydo bo'la boshlagan[13]

uchinchi bosqich: mustaqillikdan keyingi davr, ya'ni turmush qurgandan keyin uyda, ishda ayollarga nisbatan adolatli munosabatda bo'lish va siyosiy paritet huquqiga e'tibor qaratildi.

Xullas, jahon adabiyotiga ayol shaxsi erkinligi kirib keldiki, bu ko'pgina ayol ijodkorlar asarlarida kuzatila boshladi. Ayollarga bo'lgan munosabat, qarashlar, ta'ziqlar sabab, ularning ijodi bu borada bong ura boshladi. Ayollarda ham tenderlik tushunchalarini ochishga zamin yaratishdi. Natijada bugungi kun ayollarining hayotida ularning olib borgan harakatlari o'z izini qoldirdi. Ayol qay bir davrda, qanday asar yaratmasin, u ayol qalbi bilan idrok etdi. Shu bois ham ijodkor ayollarning ruhiy iztiroblari va ularning qarashlari muhim sanaladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://www.the-village-kz.com/village/city/asking-question/16519-understand-feminism>
2. М.М. Репенкова Женщины турции в литературе и обществе. Вестн. Моск. Ун-та. сер. 13. Востоковедение. 2008. № 2, с. 70.
3. «İstanbul Kadın Müzesi - Yaşar Nezihe (Bükülmez)». [www.istanbulkadinmuzesi.org](http://www.istanbulkadinmuzesi.org). "Хусейн Айкол'ун Калеминден" Айкиры
4. "Кадынлар" Википедия site:wiki5.ru; [https://wiki5.ru/wiki/Ya%C5%9Far\\_Nezihe](https://wiki5.ru/wiki/Ya%C5%9Far_Nezihe). 25.09.2023 yilda murojaat etilgan.
5. Ковыршина Н.Б. Иорданская женщина в жизни и литературе // Женщины Востока в литературе и обществе. М., 2007.
6. Женщины Востока в литературе и обществе. М., 2007
7. Утургаури С.Н. Забвению неподвластно. М., 2004. Утургаури С.Н. Турецкая проза. Основные тенденции развития. М., 1982
8. М.Норузи. К вопросу вечных темах в современной женской прозе Ирана и Рссии. ЧелГУ Весник, 20166 № 2, с. 68.





9. Мамасалиев М. АМИР ТЕМУРНИНГ ТАШҚИ СИЁСАТДАГИ ФАЛСАФИЙ-АХЛОҚИЙ ЖИҲАТЛАР //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 170-175.

10. Чориев, С.А., Рустамов, Р.Р. ДУНЁ ТАРҒИБОТ СИСТЕМАСИ ЭВОЛЮЦИЯСИ // ORIENSS. 2022. №5-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/dunyo-tar-ibot-sistemasi-evolyutsiyasi> (дата обращения: 22.01.2024).

11. Рустамов Р. Р., Тураева С. Х. Виды пропаганды, ее цели и задачи //Вестник науки. – 2020. – Т. 5. – №. 11. – С. 58-62.

12. Рўзибоев, Дилшод Аъзам Ўғли ХХ АСРНИНГ БИРИНЧИ ЯРМИГАЧА БЎЛГАН ДАВРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ АҲВОЛИ // ORIENSS. 2022. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/hh-asrning-birinchi-yarmigacha-b-lgan-davrda-zbekistonda-chorvachilikning-a-voli> (дата обращения: 09.12.2022).. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/hh-asrning-birinchi-yarmigacha-b-lgan-davrda-zbekistonda-chorvachilikning-a-voli> (дата обращения: 09.12.2022).

13. Jalilov B. N. SOG‘LOM TURMUSH TARZI VA UNING SHAKLLANISHIGA TA‘SIR KO‘RSATUVCHI OMILLAR //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 10. – С. 276-282.

14. Буриев, И. И., & Мамасалиев, М. М. (2020). ПАТРИОТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ. *Вестник науки и образования*, (22-2 (100)).

15. Бўриев И.И. ЎРТА ОСИЁДА СЎНГИ УЙҒОНИШ ДАВРИ ВА ҒАРБ РЕНЕССАНСИ // Вестник науки. 2020. №11 (32). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rta-osiyoda-s-ngi-uy-onish-davri-va-arb-renessansi> (дата обращения: 24.01.2024).